

СУРХОНДАРЁНИНГ САЛОҲИЯТИНИ ЯНАДА ТЎЛИҚ ИШГА СОЛИШ БЎЙИЧА ВАЗИФАЛАР БЕЛГИЛАБ БЕРИЛДИ

Президент Шавкат Мирзиёев 24 декабрь куни Сурхондарё вилоятини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, иш ўринларини яратиш ва камбағалликни қисқартириш чора-тадбирлари юзасидан йиғилиш ўтказди.

Яратилган шарт-шароитлар ва берилган имтиёзлар ҳисобига сўнги саккиз йилда вилоятга 3 миллиард доллар хорижий инвестиция жалб қилинган, 4 мингта sanoat корхонаси ишга туширилган. Саноат ҳажми икки баробарга ошиб, жорий йилда 17,2 триллион сўмга етиши кутилмоқда. Чарм-пойабзал, заргарлик, қурилиш материаллари ва фармацевтика каби янги тармоқлар шаклланди.

Камбағалликни қисқартириш бўйича ҳам яхши натижаларга эришилди. Жорий йилда 126 минг оила камбағалликдан чиқарилиб, камбағаллик даражаси 9,3 фоиздан 5,6 фоизгача пасайиши кутилмоқда. “Тўпаланг” сув омборидан қувур тортиш орқали Шеро-

бод, Бойсун, Бандихон, Музработ, Олтинсой, Ангор, Жарқўрғон ва Денов туманларида яшовчи 2 миллион аҳолининг ичимлик суви муаммоси тўлиқ ҳал этилган.

Шунга қарамай, бой табиий ресурслар ва етарли инфратузилмаси бўла туриб, Сурхондарё вилояти sanoat, қишлоқ хўжалиги, хизматлар ва туризм соҳаларида қатор ҳудудлардан ортада қолаётгани қайд этилди. Хусусан, вилоятда sanoat ишлаб чиқариш ҳажми Сирдарё вилоятига нисбатан 1,5 карра, Жиззах вилоятидан 1,8 баробар ва Хоразм вилоятидан 2 баробар кам.

Мева-сабзавот экспорти ҳам Самарқанд, Тошкент вилояти, Фарғона ва Хоразм

кўрсаткичларидан паст. Вилоятдаги қазилма бойликлар 600 миллиард долларга баҳолангани, бироқ бу салоҳиятнинг ҳатто 10 фоизи ҳам ишга солинмагани қайд этилди.

Шу муносабат билан вилоятни инвестиция, иш ўрни, аҳоли даромади ва экспорт суръатлари энг тез ўсадиган ҳудудга айлантириш вазифаси қўйилди.

Йиғилишда келгуси йилда вилоятда аниқланган 114 та қазилма конлари захираси асосида янги лойиҳаларни амалга ошириш зарурлиги таъкидланди. Келгуси йилда ушбу конларда 3,2 миллиард долларлик 91 та лойиҳани бошлаш, шундан 2 миллиард долларлик қисмини ишга тушириш режалари белгиланди.

Шунингдек, драйвер лойиҳалар инфратузилмасига 175 миллиард сўм ажратилади, бунинг ҳисобига 1 триллион 200 миллиард сўмлик 36 та лойиҳа амалга оширилиб, 9 мингта иш ўрни яратилади.

Туризм соҳаси муҳокама қилинар экан, вилоятда атиги 47 та меҳмонхона фаолият юритаётгани, 4 ва 5 юлдузли ёки бренд меҳмонхоналар мавжуд эмаслиги қайд этилди. Бойсун, Сангардак ва Омонхона каби юқори туристик салоҳиятга эга ҳудудлар имкониятларини тўлиқ ишга солиб, меҳмонхоналар сонини кўпайтириш, янги туризм йўналишлари ва объектларини ташкил этиш зарурлиги қайд этилди.

Қишлоқ хўжалигида мева-

сабзавот ишлаб чиқаришнинг 60 фоизи Денов, Шеробод, Қумқўрғон, Жарқўрғон, Музработ ва Сарисий туманлари ҳиссасига тўғри келаётгани қайд этилди. Келгуси йилда Ангор, Қизирик, Термиз, Узун ҳамда ихтисослашган бошқа туманларда ҳам экспортни кўпайтириш бўйича аниқ лойиҳалар ишлаб чиқиш вазифаси қўйилди.

Йиғилишда Сурхондарё вилояти ҳокими шу каби имкониятларни ишга солиш бўйича режаларини тақдимот қилди.

Давлатимиз раҳбари ҳудудда йўللارни таъмирлаш, уй-жой қуриш ва ижтимоий инфратузилмани яхшилаш бўйича ҳам кўрсатмалар берди.

ЎЗА

“ЭШИГИ ҚУЛФ РАҲБАРНИНГ ДИЛИ ҲАМ ЁПИҚ БЎЛАДИ”

**Тошкент вилояти ҳокими
Зойир Мирзаев билан суҳбат**



Бугунги геосийёсий қарама-қаршиликлар шароитида кўплаб давлатлар иқтисодий тангликка дуч келаётган, ишлаб чиқаришнинг кескин пасайиши, маҳсулот танқислиги, энергия ресурслари учун рақобат ва инфляция кучайиши, ҳатто молиявий жихатдан етакчи мамлакатлар ҳам ўз сармояларини қайта кўриб чиқишга, ижтимоий харажатларини камайтиришга мажбур бўлаётган мана шундай мураккаб бир шароитда Ўзбекистоннинг ҳар бир минтақасида, турли соҳаларда барқарор ўсиш кузатишмоқда. Биргина Тошкент вилояти мисолида оладиган бўлсак, кейинги йилларда бу ҳудуд жадал суръатлар билан ривожланиб, sanoat, қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш, инфратузилма ва туризм соҳаларида улкан ўзгаришларга эришди. Муҳтарам Юртбошимиз бошчилигида тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, хорижий сармояларни кенг жалб этиш, камбағалликни қисқартириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш бўйича бошланган ортга қайтмас ислохотлар Тошкент вилоятида ҳам ўзининг самарали натижаларини бермоқда. Мана шундай долзарб масалалар, эришилган ютуқлар ва навбатдаги режалар бўйича Тошкент вилояти ҳокими Зойир Тоирович МИРЗАЕВга бир неча савол билан мурожаат қилдик.

2-бет

ҚОНУН УСТУВОРЛИГИ – ХАЛҚИМИЗГА ХИЗМАТ ҚИЛИШИ КЕРАК

Дунё тажрибасидан маълумки, энг ривожланган мамлакатларда ҳам ҳуқуқий давлатни барпо этиш жараёнида Конституциявий суднинг ўрни ниҳоятда муҳим аҳамият касб этади. Мазкур институт қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятларнинг ҳужжатларини Конституцияга мувофиқ эканлигини таъминлаш билан бирга давлат ҳокимият тармоқлари ўртасида мувозанатни сақлашга хизмат қилади.



**Убайдулла МИНГБОВЕВ,
Ўзбекистон судьялари
Ассоциацияси раиси,
Ўзбекистонда хизмат
кўрсатган юрист**

Жорий йилнинг 18 декабрь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суд фаолиятини янада такомиллаштириш ва замонавий рақамли технологияларни жорий этишга доир чора-тадбирлар тўғрисида” Фармони қабул қилинди. Конституциявий суднинг фаолият юрита бошлаганига 30 йил тўлиши арафасида қабул қилинган мазкур Фармон билан соҳадаги ислохотларни янги босқичга олиб чиқишга кенг йўл очилиб, тизим фаолиятини рақамлаштириш дастури тасдиқланди ва аниқ ҳаракатлар стратегияси белгилаб берилди.

Қайд этилишича, Конституциявий

суд фаолиятини такомиллаштириш орқали эндиликда фуқаролар ва юридик шахсларнинг бузилган конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини тиклаш имконияти кенгайтирилади. Бунда фуқаролар ва юридик шахсларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш тартиб-таомиллари соддалаштирилиб, ортқча бюрократик тўсиқлар ва оврагарчиликларнинг олди олинади. Мавжуд ваколатларнинг кенгайиши натижасида эса, ижро этувчи ҳокимият органлари фаолияти устидан таъсирчан назорат ўрнатилиб, иш юритиш жараёнларида тўлиқ рақамлаштиришга ўтилиши Конституциявий суд фаолиятида шаф-фодлиқни ошишига хизмат қилади.

Фармонда белгиланган 2026-2027 йилга мўлжалланган Конституциявий суд фаолиятини рақамлаштириш дастури суд ҳокимиятини рақамли трансформация қилиш жараёнининг мантикий давоми ҳисобланади. Белгилаб қўйилганидек, суд иштирокчиларини Конституциявий суд мажлисининг вақти ва жойи ҳақида “Суд хабарномаси” электрон хизмати ва мобиль илова орқали электрон тарзда хабардор қилиш, суд мажлисларини ведеоконференц-алоқа режимда, шу жумладан мобиль иловадан фойдаланилган ҳолда ўтказилишини таъминлаш суд фаолиятининг очилгини янги босқичга олиб чиқади. Суд мажлисларини аудиоёзув орқали қайд этиб бориш ҳамда суд мажлиси баённомаларини ушбу тизим ёрдамида шакллантириш бирмунча қулайликларни юзага чиқаради. Шунингдек, ахборот тизимларини давлат органлари ўртасида интеграция қилиш орқали суд томонидан зарур маълумотларни электрон шаклда олиш амалиётининг жорий этилиши “фуқароларни овора қилмаслик” принципининг амалий ифодасидир.

Фармоннинг яна бир муҳим жиҳати шундан иборатки, Конституциявий судга электрон шаклда мурожаат қилиш, ҳар қандай мурожаатларни кўриб чиқиш тартиби ва муддатларини белгилаш, мурожаатларни кўриб чиқиш жараёнини онлайн кузатиб бориш, фуқаролар ва юридик шахсларга одил судловга эришишда қулайлик яратиш мақсадида 2027 йилнинг 1 августидан бошлаб Конституциявий суднинг фаолиятига “E-KSUD” ахборот тизимини жорий этилаётганлиги фармоннинг ниҳоятда долзарб эканлигидан далолат беради. Бу каби ҳолатлар жамоатчиликнинг Конституциявий судга бўлган ишончини ошириб, процессуал муддатларни қисқартириш, инсон омили билан боғлиқ камчилик-

ларни бартараф этиш ҳамда олис ҳудудларда истикомат қилувчи, айниқса, кам таъминланган ёки ногиронлиги бўлган шахслар учун зарур шарт-шароитларни яратади.

Фармонда Конституциявий суд фаолиятини ташкилий-ҳуқуқий ва ахборот-таҳлилий жиҳатдан самарали таъминлашга қаратилган чоралар ҳам назарда тутилган. Қўшимча штат бирликларининг ажратилиши, ходимлар меҳнатига ҳақ тўлаш ва моддий рағбатлантириш тизимининг такомиллаштирилиши суд тизимига юқори малакали мутахассисларни жалб қилишга хизмат қилади. Бу ўз навбатида Конституциявий суд фаолиятининг илмий-таҳлилий салоҳиятини ҳамда қабул қилинадиган қарорларнинг сифат жиҳатдан юқори поғонага кўтарилишига хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Конституциявий судни замонавий, очик ва таъсирчан конституциявий назорат институтига айлантиришга қаратилган мазкур фармони ўз вақтида қабул қилинган муҳим аҳамиятга эга бўлган ҳужжатдир. Чунки, ортга қайтмас ислохотлар даврида қабул қилинган Фармон бош Қомусимизнинг устуворлигини таъминлаш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш ҳамда ҳуқуқий давлатнинг асосларини мустақамлашга хизмат қилади. Зеро, Конституциявий суд фаолиятининг рақамлаштирилиши ва процессуал механизмларнинг такомиллаштирилиши миллий конституциявий адолат тизимининг халқро стандартларга мос равишда ривожланиши учун ҳуқуқий замин яратади.

Муҳтасар қилиб айтганда, мазкур Фармон юртимиз равнақи, жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонун билан кўрикландиган манфатларини тизимли ҳимоялашга хизмат қилади, албатта.

ПРЕЗИДЕНТ СОВҒАЛАРИ БОЛАЖОНЛАРГА ҚУВОНЧ ҲАДЯ ҚИЛАДИ

Янги йил болажонларнинг энг севимли байрамидир. Айниқса, ҳар йили ўтказиладиган “Президент арчаси” тадбири болалар қалбида унутилмас хотиралар қолдиради.

Ушбу байрам доирасида меҳрга муҳтож болаларга ғамхўрлик кўрсатиш мақсадида Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги тегишли вазирлик ва идоралар билан ҳамкорликда қатор ишларни амалга оширмоқда. Жорий йилда ҳам анъанага мувофиқ, мамлакатимиз бўйлаб болажонлар учун Президент совғалари тайёрланди. Улар жойлардаги Меҳ-

рибонлик ва Мурувват уйлари тарбияланувчилари, “SOS O'zbekiston bolalar mahallalari”, Гўдаклар уйлари, оилавий болалар уйлари тарбияланувчилари, ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болалар, шунингдек, юрт тинчлиги йўлида ҳалок бўлган ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимларининг фарзандларига мўлжалланган.

Президент совғалари таркибидан 24 турдаги ўқув қуроллари ҳамда 34 хил ширинликлар ўрин олган бўлиб, улар болаларнинг билим олишга бўлган қизиқишини ошириш, байрам кайфиятини янада кўтаришга хизмат қилади. Айни кунларда республиканинг барча ҳудудларига совғалар қарвони етиб бормоқда. Ана шундан кувончли манзиллардан бири Тошкент вилояти бўлди.

— Янги йил байрами ҳар йили ўзининг ёрқин хотиралари ва жўшқин ҳиссиётлари билан барчаниннг ёдида қолади. Айниқса, болалар бу байрамни орзиқиб кутади. Ҳар йили Президентимиз

томонидан меҳрга муҳтож болалар учун совғалар топширилади. Бу йил ҳам ушбу эзгу анъана давом эттирилиб, совғалар болажонларга етказилади. Мазкур ташаббус болаларга бўлган эътибор ва ғамхўрликнинг яна бир ёрқин намунасидир. Янги йил арафасида улашилган Президент совғалари эса болажонлар қалбида қувонч, ишонч ва илиқ хотиралар уйғотади, — дейди Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги Тошкент вилояти бошқармаси бошлиғи Миразиз Мирсултонов.

**А. МУСАЕВ,
ЎЗА мухбири**



ЕР НАЗОРАТИ ТАДБИРЛАРИГА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ЖОРИЙ ЭТИЛМОҚДА

Кадастр агентлиги Андижон вилояти бошқармаси, унинг туман, шаҳар бўлимлари томонидан ер муносабатлари соҳасида қонунийликни таъминлаш, ерларни ноқонуний эгаллаш ва ердан фойдаланишда белгиланган тартибдан четга чиқиш ҳолатларининг олдини олиш мақсадида замонавий ахборот технологияларига асосланган назорат тадбирлари амалга оширилмоқда.

Мазкур назорат тадбирлари жараёнида ер қонунчилиги бузилиш ҳолатлари нафақат инспекторларнинг жойига чиққан ҳолдаги ўрганишлари, балки учувчисиз учиш қурилмалари (дронлар) ҳамда космик тасвирларни таҳлил қилиш орқали аниқланиб, белгиланган тартибда чоралар кўрилмоқда.

Ўтказилган ер назорати тадбирлари натижасида жорий йилнинг ўтган даври мобайнида 6 минг 837 та ҳолатда жами 502 гектар ер майдонларининг ўзбошимчилик билан эгаллаб олингани аниқланди.

Ер билан боғлиқ қонунбузилиш ҳолатлари ер тоифалари кесимида таҳлил қилинганда, уларнинг 447,5 гектари қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларга, 17 гектари аҳоли пунктлари ерларига, 3,9 гектари sanoat, транспорт, алоқа ва мудофаа ерларига, 8,7



гектари сув фонди ерларига, 24,9 гектари эса бошқа тоифадаги ер майдонларига тўғри келиши аниқланди.

Шу ўринда аниқ мисолларга тўхталадиган бўлсак, масалан, Кадастр агентлиги Асака туман бўлими томонидан ўтказилган назорат тадбирлари давомида туманнинг Дастурхончи маҳалласида яшовчи фуқаро томонидан ўзига тегишли ер майдонида туташ бўлган 350 квадрат метр ер майдони ҳеч қандай ҳуқуқий ҳужжатларсиз, ўзбошимчилик билан эгалланиб, ноқонуний қурилиш ишлари олиб боририлгани маълум бўлди.

Шунингдек, Пахтаобод туман бўлими мутахассислари ўтказган ер назорати тадбирлари давомида фермер хўжалиги раҳбари экин ер майдонининг 700 квадрат метр қисмида белгиланган мақсадга зид равишда фой-



даланиб, ноқонуний қурилиш ишларини амалга оширгани аниқланди. Мазкур ҳолат юзасидан фуқароларга ҳуқуқий тушунтиришлар берилиб, ноқонуний қурилишлар ихтиёрий равишда бартараф этилди.

Умумий таҳлилларга кўра, аниқланган қонун бузилиш ҳолатлари содир этган шахслар билан олиб борилган тарғибот ва тушунтириш ишлари натижасида 6 минг 94 та ер қонунбузилиш ҳолатлари ихтиёрий равишда бартараф этилди. Шу билан бирга, 200 та ҳолатда жиноят аломатлари мавжудлиги сабабли расмийлаштирилган тегишли ҳужжатлар ҳуқуқий баҳо бериш учун прокуратура органларига тақдим этилди.

Бундан ташқари, ҳисобот даврида давлат ер, кадастр ва геодезия назорати соҳасидаги қонунчилик талабларини бузганлик учун 8 минг 428 та маъмурий ҳуқуқбузарлик баённомалари расмийлаштирилди.

Соҳа фаолиятида очиқлик ва шаффофиликни таъминлаш, коррупция ва бошқа салбий ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида Кадастр агентлиги

ҳамда Давлат кадастрлари палатаси вилоят бошқармалари, шунингдек, уларнинг туман ва шаҳар бўлимларида 200 дан ортиқ тушунтириш-профилактик тадбирлар ўтказилди.

Ҳуқуқий тарғиботлар доирасида 112 маротаба ижтимоий тармоқлар орқали, 9 марта телевидение орқали чиқишлар ташкил этилди, шу билан бирга, аҳоли вакиллари билан учрашувлар, давра суҳбатлари, семинарлар ҳамда уйма-уй тарғибот тадбирлари ўтказилди.

Кадастр агентлиги томонидан ер ресурсларидан мақсадли ва қонуний фойдаланишни таъминлаш, ер муносабатлари соҳасида қонун устуворлигини мустаҳкамлаш ҳамда замонавий технологиялар асосида назорат тадбирлари самарадорлигини оширишга қаратилган ишлар келгусида ҳам изчил давом эттирилади.

Ботиржон МИРЗААХМЕДОВ,
Кадастр агентлиги Андижон вилояти бошқармаси бошлиғи ўринбосари.



UCHINCHI O'QITUVCHI KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TUTGAN O'RNI

Bugungi ta'lim tizimi o'qituvchi va darslikdan iborat bo'lib qolmay, ta'lim muhiti ham faol o'qituvchi sifatida tan olinadigan davrga yetdi. Bu g'oya "Uchinchi o'qituvchi" deb ataladi — maktablardagi sinf xonalari, kampuslar, laboratoriyalar, kutubxonalar, qisqasi atrofdaги fazo o'z-o'zidan talaba va o'quvchini rag'batlantiruvchi pedagogik vositaga aylanadi.

Bu konsepsiya Loris Malaguzzining Reggio Emilia pedagogikasi tajribasiga asoslanadi va dunyo ta'lim standartlarida tobora ommalashib bormoqda. Muhit nafaqat bilim beruvchi, balki motivatsiya beruvchi, izlanishga undovchi kuchga aylanadi. U ranglar, yorug'lik, modul mebellar, hamkorlik zonalari orqali bolada mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantiradi — bu esa zamon talabari bilan uzviy bog'liq pedagogik yondashuv sanaladi. O'zbekiston ta'lim tizimi so'nggi yillarda nafaqat maktab va universitet infratuzilimasini yaxshilashga, balki raqamli ta'lim resurslarini joriy etish orqali muhitni "Uchinchi o'qituvchi" sifatida ishlatishga katta e'tibor qaratmoqda. Hozirgi kunda maktab va OTMlarda interaktiv elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, masofaviy platformalar va o'quv portallari faol tatbiq etilmoqda. Bu raqamli muhit talaba va o'quvchi uchun mustaqil izlanish, bilimini mustahkamlash va ijodiy yechimlar topish imkonini beruvchi kuchga aylanadi. Shu tariqa, auditoriya yoki virtual makon endi nafaqat passiv bilim manbai emas, balki talabaning faol o'quvchi va tadqiqotchi sifatida rivojlanishiga xizmat qiluvchi "uchinchi o'qituvchi"ga aylanmoqda.

Masalan, Chirchiq davlat pedagogika universitetida joriy etilayotgan onlayn testlar, elektron baholash tizimlari, Kross-sektor, STEAM markazlaridagi virtual laboratoriyalar orqali o'quvchilar o'z qobiliyatlarini mustaqil ravishda sinash imkoniga ega bo'lmoqda. Bu esa ularni faqat dars vaqtida emas, balki raqamli muhitda ham faol o'qituvchi orqali rivojlanishga undaydi, shuningdek, pedagoglarga talabalar faoliyatini individual tarzda kuzatish va adaptiv yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Shu tarzda raqamli ta'lim resurslari ham "Uchinchi o'qituvchi" konsepsiyasining amaliy ifodasi bo'lib, ta'lim jarayonini yanada interaktiv, moslashuvchan va ijtimoiy muammolarga javob beradigan darajaga ko'taradi. Bundan tashqari, ta'lim muhitini takomillashtirish jarayonida o'qituvchilarning roli ham yangicha talqin etilmoqda. Ular endi faqat bilim uzatuvchi emas, balki muhitdan unumli foydalanish bo'yicha yo'naltiruvchi, mentor va facilitatorga aylanmoqda. Bu esa pedagoglarning kasbiy faoliyatini yangi bosqichga ko'taradi, ularning metodik malakasini oshirishga, innovatsion didaktikalarni joriy etishga turki beradi. Ushbu yondashuv O'zbekistonning ko'plab ta'lim siyosat hujjatlari va amaliy choralarida ham aks etmoqda. Amaliy natijalarga kelsak, yangi maktablar va qayta qurilgan ta'lim muassasalari orqali o'quvchilarda ishtirok etuvchi, ijodkor va mustaqil fikrlovchi talaba modeli shakllanmoqda, bu esa sog'lom raqobat, innovatsion qarashlar va mustahkam ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ko'plab loyiha hududlarida talabalarining laboratoriyadagi amaliy ishlari, jamoaviy loyihalar orqali hal qilinadigan vazifalar va STEAM festivallari o'tkazilishi kabi tadbirlar buning yaqqol misolidir.

Shu tariqa, "Uchinchi o'qituvchi" konsepsiyasi O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etilishi orqali nafaqat bilim berish sifati oshmoqda, balki ijtimoiy hayotga tayyor, ijodkor va muammolarni hal qila oladigan yosh avlod shakllanmoqda. Muhit — bu endi passiv fon emas, balki har bir o'quvchi va talabani o'sishga chorlovchi pedagogik kuchdir, va aynan shuning uchun bu konsepsiya bugungi pedagogik islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylangan. "Uchinchi o'qituvchi" konsepsiyasi zamonaviy pedagogikada faqat g'oya emas, balki amaliy yo'nalish sifatida jiddiy o'rganilmoqda. Ta'lim muhiti bola va talabaning rivojlanishida faol ishtirok etadigan kuchga aylanadi. O'zbekiston maktablari va universitetlarida rivojlantiruvchi muhit yaratish orqali nafaqat bilim darajasi, balki ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalar ham oshadi.

Bugungi kunda har bir auditoriya, har bir kampus, hatto oddiy koridor ham talaba uchun yashirin o'qituvchiga aylanmoqda. Shu bois, ta'lim tizimi faqat dars beruvchi o'qituvchilar bilan cheklanmasligi, balki muhitni ham samarali pedagogik vosita sifatida qo'llashi zarur.

Muborak ZAYNIDDINOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

FARZAND TARBIYASI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Farzand tarbiyasi barcha davrlarda ham insonlar uchun dolzarb masala bo'lib kelgan. Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyati vazifalaridan biridir. O'rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur vakili, tan olingan dramaturg, nosir, shoir va zabardast olim Abdurauf Fitrat o'z davrida "Oila yoki oilani boshqarish tartibi" risolasi orqali ota-onalarga "Azizlarim, sizlar o'z farzandlaringizni mehr niqobi ostida barbod qilyapsizlar" degan achchiq xitob qilgan edi.

Bugun biz o'sha davrning urf-odatlarini — bolani beshikka mahkam bog'lab, havosiz uyda saqlash, "shamollab qoladi" deb ko'p vaqt davomida cho'miltirmaslik kabi holatlarni eshitib, dahshatga tushamiz. "Qanday johillik!" — deyimiz o'zimizning XXI asrdagi ilg'or ota-onaligimizdan g'ururlanib qo'yamiz.

Xo'sh, chindan ham shundaymi? Biz Fitrat fosh qilgan o'sha "johil ota-ona"dan qanchalik ilgirini ketdik? Qeling, do'ppini ber chetga qo'yib, sarhisob qilib ko'raylik.

Fitrat o'z davrining ota-onalarini bolaning jismoniy rivojlanishiga qarshi jinoyatda — uni "badan tarbiyasi"dan mahrum qilishda ayblagan edi. Beshik va havosiz xonalar bolaning tanasini zindonga solgan bo'lsa, biz-chi?

Biz bolani qaysidir ma'noda beshikdan "ozod qildik". Buning evaziga unga "elektron beshik" — smartfon va planshetni tutqazdik.

Go'dak hali yurishni o'rganmasidanog uning qo'lga telefon berib, ovqatlanitradigan "mehribon" onalarni ko'rganmisiz? Bu o'sha yuz yil avvalgi onaning bolani jim turishi uchun beshikka bog'lab qo'yishdan qaysi jihati bilan farq qiladi? Ikkalasining ham maqsadi bitta: bola xalaqit bermasin.

Fitrat bolani toza havoga olib chiqmaslikni qoralagan edi. Biz bolani "toza havo"ga olib chiqamiz, ammo o'sha yerda ham uning qo'lida telefon, o'zimizning ko'zimiz telefonda. Biz tabiatni, harakatni, jismoniy mehnatni raqamli dunyoga almashtirdik. Natijada esa, gipodinamiya, ko'zi xira, immuniteti past avlodni voyaga yetkazyapmiz. Fitratning "badan tarbiyasi" hayotig'i bugun har qachongidan ham dolzarbroq emasmi?

Fitratning ikkinchi va eng asosiy dardi — bu aql tarbiyasi edi. U bolalarga yodaki, hayotga aloqasi yo'q "eski maktab" bilimini berishni qoralab, dunyoviy fanlarni, "asrimizga loyiq" ilmni talab qilgan edi. Biz bu chaqiriqni ham bajarganga o'xshaymiz.

Bugun bolalarimizning jadvali ta'bir joiz bo'lsa vazirlarnikidan ham tig'izroq. Ular maktabdan chiqib, to'g'ri repetitora chopadi: ingliz tili, matematika, mental arifmetika, IT... Biz ular uchun pulni ayamaymiz. Biz "bilimli" avlod yaratayotganimizga ishonchimiz komil.

Ammo keling, o'zimizga bir savol beraylik: biz bilim olyapimizni yoki baholar poygasida qatnashyapimizmi? Afsuski, nazarimizda ikkinchisi to'g'riga o'xshaydi. Biz boladan fikrlashni emas,

test yechishni talab qilyapmiz. Biz unga ingliz tilini Shekspirni yoki Rudyard Kiplingni o'qish uchun emas, IELTSdan 7 olish uchun o'rgatypmiz. Biz unga matematikani koinot sirlarini anglash uchun emas, DTM imtihonidan "o'tib olish" uchun o'rgatypmiz.

Natijada, biz bilimli, ammo aqlli bo'lmagan avlodni tarbiyalayapmiz. Ular har qanday masalani yecha oladi, ammo "Nima uchun yashayapman?" degan savol oldida dovdirab qolishadi. Ular dunyo tillarini biladi, ammo o'z ota-onasi bilan samimiy suhbat qura olmaydi. Fitrat aynan shunday "yodlovchi"larga qarshi kurashgan edi.

Yuz yil avvalgi ota-ona bolaga, ehtimol, oddiy bo'lsa-da, tabiiy ovqat bergan. Ularning muammosi, balki ovqat yetishmasligi yoki bir xilligi bo'lgandir.

Bizning davrimizdagi muammo esa buning teskarisi to'kin-sochinlikning noto'g'ri o'zlashtirilishiga duch kelamiz. Bugungi "mehribon" ota-ona uchun mehr mezonni nima? "Bolam nimani yaxshi ko'rsa, shuni olib beraman".

Afsuski, bolalar ko'pincha fastfud, shokolad, gazli ichimliklar va yarim tayyor mahsulotlarni "yaxshi ko'radi". Biz esa "Mayli, shu narsani yesa bo'ldi, och qolmasin", "Bir marta yesa hech narsa qilmaydi" deb, ularning bu istaklariga bo'sunamiz. Achchiq haqiqatni aytishga majburiymiz, biz bolani salomatligini o'ylash o'rniga ularni ovqatlanirish mas'uliyatini oziq-ovqat sanoati va reklamalarga topshirib qo'ydik.

"Bolam yaxshi ko'radi" degan niqob ostida biz ularning jigari, oshqozoni va kelajakdagi salomatligiga qanchalik katta zarar yetkazayotganimizni o'ylamaymiz. Fitrat tanqid qilgan ota-onalar johillikdan bolani "shamollatgan" bo'lsa,

biz bilib turib, "mehrimiz" bilan ularning sog'lig'ini ko'ryamaymiz.

Fitrat va uning safdoshlari oilani kichik bir jamiyat, "boshqarish tartibi"ga ega bo'lgan tuzilma sifatida ko'rganlar. Unda har bir moddiy o'z o'rnini va mas'uliyatini bor edi. Bolaning mas'uliyati faqat "yodlash" emas, balki oila hayotida qatnashish, mehnat qilish orqali xarakterni shakllantirish ham edi.

Bugun-chi? Biz "bolam faqat o'qishi kerak" degan shior ostida uning hayotidagi barcha boshqa mas'uliyatlarni yo'qqa chiqaryapmiz.

Biz "mehribon" ota-onalar farzandimiz uchun tom ma'noda xizmatkorga aylandik. Uning xonasini yig'ishtiramiz ("Darsidan qolmasin"). Idishini yuvamiz ("Charchagan"). O'rnini yig'ishtiramiz ("Hali yosh"). Bizning "mehrimiz" bolani oddiy maishiy ko'nikmalardan — o'ziga xizmat qilishdan mahrum qildi.

"Bolam, sen faqat o'qi" degan talabimiz bilan biz unga "Qolgan barcha narsa uchun men mas'ulman" degan dahshatli xabarini beryapmiz. Natijada, u o'qishni bitirib, katta hayotga chiqqanda, na o'z kiyimini dazmol qilishni, na biror narsa buzilsa tuzatishni, na boshqa bir insonga g'amxo'rlik qilishni biladi. Chunki unga butun umr g'amxo'rlik qilishgan.

Fitrat oilani boshqarish haqida bunday yozgan edi. "Biz esa bolaga xizmat qilishni san'at darajasiga ko'tardik. Biz mehnatdan ozod qilingan, ammo hayotga mutlaqo yaroqsiz bo'lgan "bek"larni tarbiyalayapmiz".

Fitrat davrida muammo, ehtimol, yo'qchilik bo'lgan. Ota-onalar bolani "asrimizga loyiq" qilib tarbiyalay olmaganlar. Bizning davrimizda esa muammo "ko'z-ko'z qilish" va moddiy poygada. Bizning

"mehribonligimiz" farzandimizga nima kerakligi bilan emas, balki qo'shninikidan, sinfdoshidan nima kamligi bilan

o'chanadigan bo'lib qoldi. "Bolam o'ksimasin", "Ko'ngli sinmasin" degan bahonalar bilan biz uning har bir moddiy xohishini (ko'pincha o'zimizning xohishimizni) so'zsiz bajo keltiramiz. U hali eski telefonini ishlatib ulgurmasdan yangi "Ayfon" olib beramiz. Bir yilda uch marta kiyim almashtiramiz. Tug'ilgan kunlarini katta restoranda, o'zimizning obro'yimiz uchun nishonlaymiz.

Biz bolaga mehr emas, buyumlar beryapmiz. Biz unga vaqt ajratish o'rniga, pul beryapmiz.

Natijada, bola narsalarning qadrini bilmaydigan, mehnatni hurmat qilmaydigan va baxtni faqat yangi xaridlar bilan o'lchaydigan iste'molchiga aylanadi. U kim bo'lish haqida emas, nimaga ega bo'lish haqida o'ylaydigan bo'ldi. Fitrat tanqid qilgan ota-onalar bolaga ma'naviy ozuqa bera olmagan bo'lsa, biz bilib turib bolamizning ma'naviyatini moddiy "mehr" bilan bo'g'lib o'ldiryapmiz.

Fitrat o'z davri ota-onalariga tashxis qo'ygan edi: johillik. Ularning "bolamni sevaman" degani, aslida, "bolamga nima yaxshiligini bilmayman" degani edi.

Bizning davrimizga qo'yiladigan tashxis esa biroz boshqacharoq yusga ega ya'ni o'z-o'zini aldash va qulaylikka intilish. Fitratning "Oila" asari — bu shunchaki tarixiy asar emas, balki bu — oyndir. Unga yuz yil o'tib qarasak ham, afsuski, o'sha tanish chehralarni— o'zimizning "mehribon" niqobi ostidagi mas'uliyatsizligimiz va beparvoligimizni ko'ryapmiz.

Ikrom QODIROV,
CHDPU v.b. dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori



Муассаса жорий йилда давлат аҳамиятидаги йўللарга 46 км. халқаро аҳамиятдаги йўллarga 41 км. ва маҳаллий аҳамиятдаги 31 км. йўллarga хизмат кўрсатишади. Жамоада умумий 85 нафар ишчи-ходимлар фаолият юритиб келишмоқда. Жами 23 дона техникалар эса қишки мавсумда қишки қаров ишлари билан банд бўлиб, туз ва қум аралашмаси захираси яратилган.

*Ушбу жамоамиз номидан кириб келаётган янги 2026 Янги йил билан барча юртдошларимизни қизгин муборакбод этади!
Ушбу байрам ҳаммага кўндан-кўп омадли лаҳзаларни ва бахтли онларни ҳадыя этсин.
Барча эзгу орзу-умидларингиз рўёбга чиқсин.
Хурсандчилик ва бахт-иқбол туйғулари асло тарк этмасин!
Йўлларимиз равон бўлсин!!!*

2026

Оқ олтин туман йўллардан фойдаланиш давлат муассасаси жамоаси



“O‘ZYO‘LKO‘PRIK” КЛАСТЕРИНИНГ ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ФИЛИАЛИ ДАВЛАТ МУАССАСАСИ ЖАМОАСИ

Барча юртдошларимизни янги 2026 йил билан табриклайди!
Сизларни оилавий бахт, сиҳат-саломатлик,
тўкин-сочинлик тарк этмасин! Тинчлигимиз барқарор,
истикболимиз порлоқ бўлсин!
Озод ва обод юртимиз бунданда гуллаб-яшнайверсин!
Чексиз бахт, саломатлик ва барака сизни асло тарк этмасин!
Байрамингиз муборак бўлсин!!!

